O‘QUVCHI-YOSHLARDA “TEMUR TUZUKLARI” ASOSIDA VATANPARVARLIK VA TAHLILIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Usmonova Matluba Nosirovna
Ped.f.b.f.n.(PhD), IIV ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarix fani o‘qituvchisi
elektron pochta: matluba198503@gmail.com
tel:998909713073
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22979258

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari misolida yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy merosni zamonaviy ta’lim metodlari bilan integratsiya qilish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, vatanparvarlik, tahliliy fikrlash, kompetensiya, strategik boshqaruv, pedagogik metodika.

Abstract: This article highlights the pedagogical mechanisms for instilling a sense of patriotism and developing analytical thinking skills in the younger generation using the example of Amir Temur's work "Temur's Regulations". The study analyzes the issues of integrating historical heritage with modern educational methods.

Keywords: Temur’s regulations, patriotism, analytical thinking, competence, strategic management, pedagogical methodology.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические механизмы воспитания патриотических чувств и развития навыков аналитического мышления у подрастающего поколения на примере произведения Амира Темура «Уложения Темура». В исследовании анализируются вопросы интеграции исторического наследия с современными методами обучения.

Ключевые слова: Законы Темура, патриотизм, аналитическое мышление, компетентность, стратегическое управление, педагогическая методика

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning milliy o‘zligini anglashi va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi davlat xavfsizligining muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan chuqur ma’noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e’tiqodga aylanishi zarur. Biz o‘z oldimizga Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan ekanmiz, bunda Amir Temur kabi bobolarimizning boshqaruv mahorati va vatanparvarlik o‘gitlariga tayanamiz”[1].

Amir Temur nafaqat bizning Vatanimiz, el-yurtimizni mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik mustamlakachilik zulmidanxalos etgan buyuk davlat arbobi va sarkarda, ardoqli tarixiy shaxs sifatida e’tirof qilinadi, balki zaif Yevropa dunyosining xaloskori va bu xalqlarga Uyg‘onish davrini boshlab bergan betakror shaxs sifatida ham jahon xalqlari uchun bag‘oyat qadrlidir. Uning “Temur tuzuklari” shunchaki tarixiy asar emas, balki davlat boshqaruvi, harbiy mahorat va insoniy fazilatlar majmuasidir.

Mazkur asarni o‘quv jarayoniga tizimli tatbiq etish o‘quvchilarda voqea-hodisalarga tanqidiy yondashish va vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Ushbu maqolada “Temur tuzuklari”ni “Vatanparvarlik asoslari” qo‘shimcha darslar hisobida o‘qitish yordamida o‘quvchi-yoshlarda tanqidiy-tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil: “Temur tuzuklari”dagi boshqaruv tamoyillarini zamonaviy menejment va pedagogika bilan qiyoslash.

Keys-stadi (Case study): Tuzuklardagi aniq hayotiy vaziyatlarni o‘quvchilarga muammoli topshiriq sifatida berish.

Sokratik savol-javob: O‘quvchilarni matn ustida chuqur mushohada yuritishga undash.

Metodikaning asosi — o‘quvchini passiv tinglovchidan faol tahlilchiga aylantirishdir. Masalan, "Kuch — adolatdadir" tamoyilini bugungi kun ijtimoiy hayoti misolida tahlil qilish topshirig‘i beriladi.
“Temur tuzuklari”ni o‘qitishda quyidagi uch bosqichli model samaradorlik ko‘rsatdi:

1. **Kognitiv bosqich:** O‘quvchi asardagi 12 tamoyil va boshqaruv qoidalarini o‘rganadi.O‘zgaruvchan, o‘zgarmas va o‘zgaruvchi mulohazalarning o‘zgarishi ma’no va sabablarini bilib olishi.

2. **Affektiv bosqich:** Tarixiy g‘alabalarning zamiridagi vatanparvarlik va iroda o‘quvchida hissiy aks-sado beradi.Masalan: Saltanatni idora etishning beshinchi tuzugida amirlarim, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoqdosh bo‘lib, ularning mardligi mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohni taxtini egalladim.

3. **Pragmatik bosqich:** O‘quvchi "Agar men rahbar bo‘lsam, ushbu vaziyatni qanday hal qilardim?" degan savol orqali tahliliy qaror qabul qilishni o‘rganadi.Bo’lajak ichki ishlar xodimi sifatida tuzuklardagi “Saltanatni o‘z tasarrufida saqlab turishning o‘n ikki tuzugi”ni tahlil etish orqali erishish mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodikalar qo‘llanilgan sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy xulosa chiqarish darajasi 25-30% ga oshgan[2]. Ular shaxsiy manfaatdan ko‘ra umummilliy manfaatlarni ustun qo‘yish tushunchasini chuqurroq anglay boshlaganlar.

Amir Temur “Tuzuklar’da davlatni to‘rt narsaga: “kengash, mashvarat, tadbirkorlik va hushyorlik”ka tayanib boshqarganini yozadi[3]. Bu tamoyillar bugungi kunning **“Critical Thinking” (Tanqidiy fikrlash)** va **“Strategic Management”** tushunchalari bilan to‘liq hamohangdir.

Vatanparvarlik faqat shiorlar bilan emas, balki bobolarimizning intellektual merosini anglash orqali shakllanadi. “Tuzuklar”dagi ‘Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin” degan g‘oya o‘quvchida kuch emas, bilim va tahlil ustuvor ekanligi haqida ko‘nikma hosil qiladi. Bu esa yoshlarni axborot xurujlariga qarshi “immunitet” bilan ta’minlaydi.

Xulosa shuki, “Temur tuzuklari” asosida darslarni tashkil etish — yoshlarni nafaqat vatanparvar, balki intellektual salohiyatli kadrlar qilib tarbiyalashning eng samarali yo‘lidir. Ushbu asar asosida tayyorlangan maxsus metodik qo‘llanmalar barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasiga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

ISSN:2308-5703

Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* September, 2026

3. Amir Temur. Temur tuzuklari. (Fors tilidan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi). – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2020. – 124-b.
4. Jo‘rayev N. Dog‘unlikdan daxldorlikka. – T.: “Ma’naviyat”, 2015
5. Rahimov J.Amir Temur buyuk davlat arbobi va ulug‘ sarkarda. – T.: “Ziyo nashr”, 2023.-668-b. 405-412-bb